



XORIJIY MAMLAKATLAR TAJRIBASIDA MAHSULOT MUVOFIQLIGINI BAHOLASH AMALIYOTI

Zakirov Ansabxon
Akaidinovich

TDIU mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya

Mazkur maqolada mahsulotlarning xalqaro darajadagi muvofiqligini baholash amaliyoti hamda akkreditatsiya tizimining ahamiyati yoritilgan. Xalqaro tajribada qo'llaniladigan QIS, ILAC, IAF va Jahon Savdo Tashkilotining TBT bitimi doirasidagi mexanizmlar tahlil qilingan.

Kalit so'zlar

Quality Infrastructure System (QIS), standartlashtirish, metrologiya, akkreditatsiya, sertifikatlashtirish, xalqaro savdo, texnik to'siqlar, mahsulot sifati.

THE PRACTICE OF PRODUCT CONFORMITY ASSESSMENT IN THE EXPERIENCE OF FOREIGN COUNTRIES

Annotation: This article highlights the practice of assessing product conformity at the international level and the importance of the accreditation system. The mechanisms applied in international practice, including the Quality Infrastructure System (QIS), ILAC, IAF, and the WTO TBT Agreement, are analyzed.

Key words: *Quality Infrastructure System (QIS), standardization, metrology, accreditation, certification, international trade, technical barriers, product quality.*

Kirish

Mahsulotlarning xalqaro darajadagi muvofiqligini baholash zamonaviy global iqtisodiyotda strategik ahamiyat kasb etadi. Jahon bozorlarida raqobatning keskinlashuvi, texnologik jarayonlarning doimiy yangilanib borishi va iste'molchilarning sifat hamda xavfsizlikka oid talablarining ortishi mahsulotlarni xalqaro standartlar asosida sertifikatlashtirishni zarur qilmoqda. Muvofiqlikni baholash tizimlari ishlab chiqaruvchilarga mahsulot sifatini kafolatlash, iste'molchilarda ishonch uyg'otish va eksport jarayonlarida yuzaga keladigan texnik to'siqlarni kamaytirish imkonini beradi. Shu jihatdan, mazkur jarayon xalqaro savdoning barqaror rivojlanishi va mamlakatlar o'rtasida iqtisodiy hamkorlikning kengayishiga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

Xalqaro tajriba nuqtayi nazaridan qaralganda, Quality Infrastructure System (QIS), Jahon Savdo Tashkilotining Technical Barriers to Trade (TBT) Agreement mexanizmlari, shuningdek, ILAC (International Laboratory Accreditation Cooperation) va IAF (International Accreditation Forum) kabi xalqaro akkreditatsiya tashkilotlari doirasida shakllangan o‘zaro tan olish tizimlari muvofiqlikni baholashning asosiy tayanchlari hisoblanadi. Ushbu mexanizmlar mahsulotlarni turli mamlakatlarda qayta sinovdan o‘tkazish zaruratini kamaytiradi, ishlab chiqaruvchilar uchun vaqt va xarajatlarni tejaydi, iste’molchilar uchun esa xavfsizlik va sifat kafolatini mustahkamlaydi.

Bundan tashqari, xalqaro muvofiqlikni baholash amaliyotini milliy tizimlarga integratsiya qilish mamlakat sanoatining raqobatbardoshligini oshirish, energiya samaradorligi va innovatsion texnologiyalarni keng joriy etish, shuningdek, barqaror iqtisodiy o‘sishga erishishda muhim omil sifatida namoyon bo‘lmoqda. Shu bois xalqaro tajribani chuqur o‘rganish va uni O‘zbekiston sharoitiga moslashtirish iqtisodiy siyosatda ustuvor yo‘nalishlardan biri hisoblanadi.

Adabiyotlar sharhi

F. Cordeiro va M. Ramseyning fikriga ko‘ra, mahsulotlar muvofiqligini baholashda to‘g‘ri tashkil etilgan namuna olish jarayoni o‘lchov natijalarining ma’lum bir noaniqlik darajasi bilan birga taqdim etilishini ta’minlaydi hamda ularni maqsadga muvofiq foydalanishga imkon yaratadi [1]. Shu tariqa, tegishli tarzda tanlangan namuna o‘z vazifasini to‘laqonli bajarishi uchun yetarlicha vakillikka ega bo‘ladi.

R. Houe va B. Grabot fikriga ko‘ra, ekologik yorliqlar mahsulotning atrof-muhitga ta’siri pastligini tasdiqlovchi ko‘rsatkich sifatida raqobat ustunligini berishi mumkin, chunki ular faqat ixtiyoriy asosda olinadi. Bunday yorliqni olish uchun mahsulotni insonlar oson tushunadigan ifodalar orqali bayon qilingan qoidalarga muvofiq tahlil qilish talab etiladi. Ammo bu qoidalar talqin qilish ham, ayniqsa mahsulot murakkab bo‘lganda, amalda qo‘llash qiyin bo‘lishi mumkin. Shuningdek, ekologik yorliqlar ko‘pincha ma’lum davlatlar yoki geografik hududlarga xos bo‘ladi [2]. Fikrimizcha, mahsulotni bir nechta davlatlarda eksport qilish uchun turli yorliqlarga muvofiqligini tekshirish zarur bo‘ladi hamda turli ekologik yorliqlarni olish jarayonida qimmat va qisman takrorlanuvchi tahlillar o‘tkazilishi talab qilinadi.

R. Liepiņa, I. Lapiņa va J. Mazaisning ilmiy izlanishlarida qayd etilishicha, muvofiqlikni baholash jarayoni ma’lum bir mahsulot yoki mahsulotlar guruhiga ularning xususiyatlarini inobatga olgan holda moslashtiriladi. Muvofiqlikni baholashni amalga oshirish uchun mahsulotga va baholash jarayoniga qo‘yiladigan aniq talablar mavjud bo‘lishi zarur. Ushbu talablar majmuasi “muvofiqlikni baholash sxemasi” deb yuritiladi [3].

A.Gallup fikriga ko‘ra, 2008-yilda yuzaga kelgan iqtisodiy inqiroz natijasida muvofiqlik sertifikatiga ega bo‘lgan mahsulotlarni qaytarib olish holatlari kuzatilgan bo‘lib, bu iste’molchilarning oziq-ovqat va boshqa iste’mol tovarlarining xavfsizligini ta’minlashga bo‘lgan ishonchiga salbiy ta’sir ko‘rsatgan [4]. Fikrimizcha, ushbu holat ishlab chiqaruvchilarning sifatni nazorat qilish tizimlarini takomillashtirish, sertifikatlash jarayonlarini yanada qat’iylashtirish va iste’molchilarga mahsulot xavfsizligi bo‘yicha yetarli ma’lumot berish zaruratini kuchaytiradi. Bu esa nafaqat

iste'molchilar ishonchini tiklash, balki umumiy bozor barqarorligini ta'minlashga ham xizmat qiladi.

Tadqiqot metodologiyasi


Mazkur tadqiqotda mahsulotlarning xalqaro darajadagi muvofiqligini baholash va akkreditatsiya tizimining samaradorligini o'rganishga e'tibor qaratildi. Xalqaro amaliyotdagi asosiy mexanizmlar — Quality Infrastructure System (QIS), ILAC va IAF akkreditatsiya doiralarida amal qiluvchi o'zaro tan olish tizimlari o'rganildi. Shuningdek, Jahon Savdo Tashkilotining Texnik savdo to'siqlari (TBT) bitimi doirasidagi talablar tahlil qilindi.

Tahlil va natijalar

Xorijiy tajribada mahsulotlar muvofiqligini baholashda sifat infratuzilmasi (QIS) iqtisodiy taraqqiyot, fuqarolarning farovonligi va salomatligini ta'minlashga xizmat qiladi. QIS sanoatni rivojlantirish, jahon bozorlarida raqobatbardoshlikni oshirish, resurslarni samarali ishlatish, oziq-ovqat xavfsizligi, sog'liqni saqlash va atrof-muhitni himoya qilish kabi davlat siyosatini amalga oshiradi.

QIS xalqaro standartlar va baholash tartib-qoidalaridan foydalanib, mahsulotlar sifatini oshirish bo'yicha milliy siyosat, institutlar, normativ-huquqiy baza, xizmat ko'rsatuvchi provayderlar, korxonalar va iste'molchilar o'rtasidagi hamkorlikni qamrab oladi. U standartlashtirish, metrologiya, akkreditatsiya, muvofiqlikni baholash va bozor nazoratini o'z ichiga oladi.

QIS korxonalarga raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarish, milliy va xalqaro standartlarga moslash, iste'molchilar talablarini qondirish va jahon bozorida o'rin egallash imkonini beradi. Har bir mamlakat QISni milliy va mintaqaviy talablarga moslashtiradi, foydasi esa iste'molchi, ishlab chiqaruvchi va yetkazib beruvchilar zanjirida seziladi.



1-rasm. Sifat infratuzilmasi tizimini rivojlantirish bosqichlari

Iste'molchilar QIS orqali mahsulot va xizmatlar talablariga javob berishiga ishonch hosil qiladi. Ishlab chiqaruvchi va yetkazib beruvchi xalqaro standartlardan foydalangan holda mahsulot va biznes jarayonlarini moslashtiradi. Hukumatlar

standartlar va muvofiqlikni baholash orqali sog‘liq, xavfsizlik va atrof-muhitni himoya qiladi, zarur bo‘lsa, muvofiqlikni majburiy qiladi va mos kelmaydigan mahsulotlarni sotishni taqiqlaydi.

QIS jahon bozorlarida sanoat raqobatbardoshligini oshirish, resurslarni samarali ishlatish, texnologik tajriba almashish va aholi salomatligini himoya qilish imkonini beradi. Global bozorlar raqobatni kuchaytirib, iste’molchilarga sifatli mahsulotlarni tanlash imkoniyatini yaratadi. Korxonalar esa mijoz fikr-mulohazalaridan kelib chiqib mahsulot va xizmat sifatini yaxshilaydi.

Muvofiqlikni baholash – mahsulot, xizmat va jarayonlarning belgilangan talablar (ISO kabi xalqaro standartlar)ga mosligini tasdiqlashdir. Xalqaro standartlar muvofiqlikni baholashni uyg‘unlashtirib, savdodagi texnik to‘siqlarni kamaytiradi. JSTning Savdodagi texnik to‘siqlar to‘g‘risidagi bitimi (TBT Agreement) reglamentlar, standartlar va muvofiqlikni baholash tartiblarini belgilab, xalqaro savdoda bo‘shliqlarni bartaraf etishga xizmat qiladi. JSTning Savdodagi texnik to‘siqlar to‘g‘risidagi bitimi xalqaro savdoda texnik reglamentlar, standartlar va muvofiqlikni baholash tartib-qoidalarining qo‘llanilishi bilan bog‘liq masalalarni tartibga soladi. Bitimning asosiy maqsadlari quyidagi 2-rasmda keltirilgan.

Savdodagi texnik to‘siqlar to‘g‘risidagi bitimining maqsadlari	Savdodagi ortiqcha texnik to‘siqlarni kamaytirish:	Davlatlarning texnik reglament va standartlarni joriy etish huquqini tan olgan holda, ular xalqaro savdoga asossiz to‘siq bo‘lishining oldini olish.
	Xalqaro standartlardan foydalanishni rag‘batlantirish:	Jahon savdosini muvofiqlashtirish uchun xalqaro tashkilotlar tomonidan qabul qilingan standartlarga rioya qilishni tavsiya etish.
	Shaffoflikni ta’minlash:	Texnik reglamentlar va standartlarga oid o‘zgarishlar haqida JSTga a’zo davlatlarni xabardor qilish va ularning fikr-mulohazalarini inobatga olish.

2-rasm. Savdodagi texnik to‘siqlar to‘g‘risidagi bitimining maqsadlari

Davlatlar mahsulot sifati, xavfsizligi va atrof-muhitni muhofaza qilish uchun texnik talablarni belgilashi mumkin, ammo ular xalqaro savdoga to‘siq bo‘lmashligi kerak. Sertifikatlash, sinov va inspeksiya jarayonlari shaffof va adolatli bo‘lishi, reglament va standartlar xalqaro standartlarga moslashtirilishi zarur. A’zo davlatlar JSTga texnik reglament va standartlari haqida axborot berishi shart.

Bitim iste’molchilar huquqini himoya qiladi, korxonalarga xalqaro bozorga moslashishda yordam beradi va muvofiqlikni baholash tizimini rivojlantirishni qo‘llab-quvvatlaydi. QIS rivojlanayotgan mamlakatlarning raqobatbardoshligini oshiradi, mahsulot muvofiqligini baholash esa sinov, inspeksiya va sertifikatlash orqali amalga oshiriladi. ISO 9001 va ISO 14001 standartlari xalqaro amaliyotda keng qo‘llaniladi.

Standartlar mahsulot va xizmatlarning belgilangan talablarga javob berishini ta’minlaydi. Mahalliy ishlab chiqaruvchilar xalqaro standartlarga moslashganda ichki bozor va eksport imkoniyatlari kengayadi, iste’molchilar sifatli va xavfsiz mahsulotlardan foydalanadi. Milliy Standartlashtirish Byurolari (NBS)

standartlashtirishni amalga oshiradi, ISO esa global tajribadan foydalanishga yordam beradi.

Metrologiya muvofiqlikni baholashda ishonchli o'lchovlar, laboratoriya sinovlari va xalqaro standartlarga moslikni ta'minlab, xavfsizlik va shaffoflikni oshiradi. Akkreditatsiya esa sinov, sertifikatlash va boshqaruv tizimlari vakolatlarini rasmiy tan olishni ta'minlaydi, natijada mahsulotlar iste'molchi talablariga javob beradi.

Ishonchlilikni ta'minlash	•akkreditatsiyadan o'tgan laboratoriyalar va sertifikatlashtirish organlari o'z faoliyatini xalqaro standartlarga muvofiq olib boradi, bu esa mahsulot sifatini baholash jarayonini ishonchli qiladi.
Xalqaro tan olinishi	•akkreditatsiyalangan muvofiqlikni baholash organlari tomonidan berilgan sertifikatlar boshqa davlatlar tomonidan ham qabul qilinadi, bu esa mahsulotlarning eksport imkoniyatlarini kengaytiradi.
Bozor shaffofligini oshirish	•akkreditatsiya orqali iste'molchilar, ishlab chiqaruvchilar va tartibga soluvchi organlar mahsulot sifati va xavfsizligi bo'yicha aniq ma'lumotlarga ega bo'lishadi.
Xavfsizlik va sifatni kafolatlash	•akkreditatsiya muvofiqlikni baholash jarayonining sifatli va xolis bo'lishini ta'minlaydi, bu esa inson salomatligi, atrof-muhit va iste'molchilar huquqlarini himoya qilishga xizmat qiladi.
Savdodagi texnik to'siqlarni bartaraf etish	•akkreditatsiyalangan muvofiqlikni baholash organlari xalqaro tan olingan standartlar asosida ishlaganligi sababli, mahsulotlarning chet el bozorlariga chiqishini osonlashtiradi.

3-rasm. Akkreditatsiyalashning iste'molchilar uchun ijobiy jihatlari


Akkreditatsiya ko'pincha Milliy Akkreditatsiya Byurolari (NAB) tomonidan amalga oshiriladi va IAF hamda ILAC orqali xalqaro tan olinishi ta'minlanadi. IAF va ILAC ko'p tomonlama kelishuvlar orqali mamlakatlar o'rtasida sinov, tekshirish va sertifikatlashtirish natijalarini o'zaro tan olishni rag'batlantiradi, bu esa xalqaro savdoni optimallashtiradi.

QIS yaratishda milliy hukumat yetakchi rol o'ynaydi, milliy sifat siyosati (NQP) esa QIS maqsadlarini belgilab, yo'l xaritasini ishlab chiqadi. Manfaatdor tomonlar – vazirliklar, nazorat organlari, savdo-sanoat birlashmalari, iste'molchilar va sertifikat xizmatlari – QISning to'liq ishtirokini ta'minlaydi.

QIS mamlakatning jahon bozorlariga integratsiyalashuvini oshiradi, milliy standartlar va texnik reglamentlarning JST global qoidalariga muvofiq bo'lishini kafolatlaydi. Texnik reglamentlarning uyg'un emasligi xavfsizlik va savdo to'siqlarini keltirib chiqarishi mumkin, shuning uchun regulyator faoliyati muvofiqlashtirilgan bo'lishi kerak.

Rivojlanayotgan mamlakatlar sifat talablari va xalqaro savdo qoidalariga rioya qilmaslik tufayli jahon bozorlarida raqobatbardoshlikni yo'qotadi. UNIDO va ICC QISni rivojlantirishda hamkorlik qilib, global xabardorlik va samarali faoliyatni ta'minlaydi.

Mahsulot sifatini baholashda SIC tizimidan ham foydalaniladi. AQShda ishlab chiqilgan SIC 4 xonali kodlardan iborat bo‘lib, korxona va tashkilotlarni iqtisodiy faoliyat turiga qarab tasniflaydi. 1997-yildan NAICS bilan almashtirilgan bo‘lsa-da, ba’zi sohalarda hozir ham qo‘llaniladi.



4-rasm. SIC kodlarining tuzilishi

Rivojlanayotgan mamlakatlarda SIC tizimi oziq-ovqat xavfsizligi, tibbiy xizmat sifati, atrof-muhitni muhofaza qilish, iqlim o‘zgarishiga qarshi kurash, ijtimoiy himoya va gender tengligini ta’minlashda foydalidir. Kompaniyalar strategik maqsadlar asosida faoliyatini doimiy takomillashtirib, ushbu yondashuvni yetkazib beruvchilarga ham kengaytiradi.

Mahsulot muvofiqligini baholash korxona barqarorligini oshiradi, sifatini yaxshilaydi, texnologik suverenitetga yordam beradi va inqirozlarni muvaffaqiyatli yengishga imkon yaratadi.

Xulosa va takliflar

Mahsulotlarning xalqaro darajadagi muvofiqligini baholash amaliyoti zamonaviy global iqtisodiyotda sifat, xavfsizlik va raqobatbardoshlikni ta’minlashda muhim omil hisoblanadi. O‘zbekiston tajribasida xalqaro standartlar, akkreditatsiya mexanizmlari va o‘zaro tan olish tizimlarini milliy amaliyotga joriy etish eksport salohiyatini oshirish, texnik to‘siqlarni bartaraf etish va sertifikatlash jarayonlarini soddalashtirish imkonini beradi.

Tadqiqot shuni ko‘rsatdiki, IECEE, ILAC, IAF va JST TBT kabi xalqaro mexanizmlarni milliy tizimga integratsiya qilish nafaqat ishlab chiqaruvchilar uchun xarajatlarni kamaytiradi, balki energiya samaradorligini oshirish hamda mamlakatning xalqaro bozordagi raqobatbardoshligini mustahkamlashga xizmat qiladi. Shu bois xalqaro tajribani chuqur o‘rganish va uni bosqichma-bosqich milliy amaliyotga tatbiq etish mamlakatimiz iqtisodiy siyosatida ustuvor yo‘nalishlardan biri bo‘lib qolishi lozim.

Adabiyotlar ro‘yxati

1. F.Cordeiro, M.H. Ramsey. Sampling in the context of conformity assessment. Accreditation and Quality Assurance (2023) 28. P. 181–182.
2. R.Houe, B.Grabot. Assessing the compliance of a product with an eco-label: From standards to constraints. International Journal of Production Economics, Volume 121, Issue 1, 2009. P. 21-38.
3. R.Liepina, I.Lapina, J.Mazais. Contemporary Issues of Quality Management: Relationship between Conformity Assessment and Quality Management. Procedia - Social and Behavioral Sciences, Vol. 110. 2014. P. 627-637.
4. Gallup, A.M., 2008. The Gallup Poll Cumulative Index: Public Opinion, 1998-2007. Rowman and Littlefield, Lantham, Maryland.